



YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH VA XALQARO TAJRIBALAR

Karimov Sherzod Xasanovich

Yoshlar ishlari agentligi Markaziy apparati

“Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko‘maklashish bo‘limi”

bosh mutaxassisi,

email: sher_hon@mail.ru

Ismonov Navro‘zbek Obobakir o‘g‘li

Yoshlar ishlari agentligi Markaziy apparati

bosh mutaxassisi,

email: navruzbek269@gmail.com

Annotatsiya: Yoshlar bandligini ta'minlash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishning ham asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston tajribasi va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish orqali yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish mumkin.

Bu borada quyidagi takliflar ilgari suriladi, bunda ta'lim tizimini mehnat bozorining talablariga moslashtirish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus grant dasturlarini kengaytirish hamda xalqaro hamkorlik orqali innovatsion yondashuvlarni milliy amaliyotga joriy qilishdan iborat.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish yoshlar bandligini oshirishga, ishsizlikni kamaytirishga va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, bandligi, kasb-hunar, hunarmandchilik, subsidiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy barqarorlik, ishsizlik, mehnat bozori, yer ajratish, xalqaro, tajriba, statistik tahlillar.



Yoshlar bandligi masalasi zamonaviy dunyoda dolzarb muammolardan biri boʻlib, u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikning ham asosiy omillaridan hisoblanadi. Jahon boʻyicha yoshlar ishsizligining yuqori darajasi iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, taʼlim tizimining mehnat bozoriga mos kelmasligi va boshqa omillar bilan bogʻliq.

Oʻzbekiston yoshlarining mehnat bozoridagi oʻrni va ularga taqdim etilayotgan imkoniyatlar davlatning asosiy siyosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqola yoshlar bandligini taʼminlash boʻyicha milliy chora-tadbirlar va xalqaro tajribalarni oʻrganishga bagʻishlanadi.

Oʻzbekiston hukumati yoshlar bandligini taʼminlash uchun qator dasturlar va qonunchilik choralarini amalga oshirmoqda. Quyida asosiy yoʻnalishlar keltirilgan:

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son qaroriga binoan, “Yoshlar daftari” davlatning yoshlar bandligini taʼminlashga qaratilgan dasturi boʻlib, unda ishsiz yoki ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlar roʻyxati shakllantiriladi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadlari:

- Yoshlarni kasb-hunarga oʻqitish.
- Ularni mehnat bozoriga moslashtirish.
- Mini-texnika va qishloq xoʻjaligi texnikalarini xarid qilish uchun subsidiyalar berish.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yi 5-apreldagi PQ-153-son qaroriga binoan, yoshlar oʻzini-oʻzi band qilish maqsadida 30 yil muddatga ijaraga yer maydonlarini olish imkoniyatiga ega. Ushbu yerlar qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishga yoʻnaltirilgan.

Davlat yoshlarni hunarmandchilikka oʻqitish va ularni mustaqil tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishga koʻmaklashmoqda. Yosh hunarmandlar uchun soliq imtiyozlari va grantlar ajratilmoqda.

Shuningdek, 2024-yil davomida yoshlar bandligini taʼminlash va yoshlar orasida ishsizlik darajasini tushirish maqsadida har bir mahallada “fuqarobay” ishlab chiqilgan “Yoshlar bandligi dastur”lari ishlab chiqilib, quyidagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan:



153 ming nafarga yaqin yoshga dehqonchilik qilishi uchun “mahalla yettiligi” tavsiyasi bilan 56 ming gektar unumdor yer maydonlari ajratildi;

Respublika hududlarining 1 tadan tumanida (jami 14 ta) “Uychi tumani tajribasi” joriy etilib, ishsiz va norasmiy faoliyatdagi 63 ming nafarga yaqin yoshlar bandligi ta’minlandi;

24 ming nafardan ortiq yoshlarga o‘z tadbirkorligini boshlashi va o‘zini band qilishi maqsadida subsidiya asosida asbob-uskuna ajratildi;

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 125 ming nafardan ortiq yoshga 2 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratilib, mahallaning o‘zida bandligi ta’minlandi;

yoshlarni yuqori daromadli faoliyatga jalb etishga qaratilgan “Kelajak kasblari” loyihasi orqali 25 ming nafar yoshlar o‘qitildi.

Bundan tashqari, hududlarda “Biznes marafon” va “Biznes sayohat” loyihalari amalga oshirilib, yoshlarning biznes ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan seminarlarda 70 mingga yaqin yoshlar qamrab olindi.

Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish va ularni doimiy daromad topishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ustoz AI” loyihasi tashkil etilib, bunda 250 mingdan ortiq yoshlar zamonaviy kasblar va fanlar bo‘yicha o‘z bilimlarini oshirib bandligini ta’minlab daromad topib kelmoqda.

Yevropa Ittifoqida yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda:

- “Youth Guarantee” dasturi: Yoshlarni ta’lim olish, kasbga yo‘naltirish va ish bilan ta’minlashga qaratilgan dastur.
- Germaniyaning dual ta’lim tizimi: Ta’lim va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish orqali yoshlarning malakasini oshirish va ularni ish bilan ta’minlash.

AQShda yoshlar bandligini ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:



- Tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari: Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus grantlar va imtiyozli kreditlar.
- Ish beruvchilar uchun soliq imtiyozlari: Yoshlarni ishga qabul qilgan tashkilotlarga soliq imtiyozlari beriladi.

Janubiy Koreya yoshlarni band qilishda innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni ustuvor qiladi:

- Texnologik startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari.
- Yoshlar uchun raqamli kasb o'rgatish platformalari.

Hindistonda yoshlar bandligi bo'yicha quyidagi yondashuvlar mavjud:

- Kichik biznes kreditlari: Yoshlar uchun imtiyozli mikrokreditlar ajratish orqali kichik tadbirkorlikni rivojlantirish.
- Kasbiy o'qitish dasturlari: Ta'lim va amaliyotni birlashtirish orqali mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarni o'rgatish.

2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston yoshlari (16-30 yosh) umumiy aholi sonining 30 foizini tashkil qiladi.

Bandlikka oid statistikalar: Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi 13,5 foizni tashkil etadi hamda qishloq xo'jaligida band yoshlar ulushi 25 foizni tashkil etadi.

Jahon mehnat tashkiloti (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi o'rtacha 15,6 foizni tashkil etadi.

Germaniyada dual ta'lim tizimi sababli yoshlar o'rtasidagi ishsizlik 6,5 foizdan oshmaydi, Janubiy Koreyada raqamli startaplar va texnologik sohalardagi dasturlar tufayli yoshlar bandligi so'nggi 5 yilda 8 foizga oshgan hamda Hindistonda kichik biznes kreditlari dasturi orqali yiliga 3 million yosh tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilinmoqda.

O'zbekistonda xalqaro tajribalarni joriy qilish bo'yicha quyidagi takliflar kiritilishi mumkin:



- Dual ta'lim tizimini joriy qilish: Germaniyaning tajribasidan kelib chiqib, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish.
- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish: Janubiy Koreyaning yoshlar uchun onlayn platformalar tashkil etish tajribasidan foydalanish.
- Imtiyozli kreditlashni kengaytirish: AQSh va Hindistonning yoshlar uchun kichik biznes kreditlari dasturlarini moslashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevral kungi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yi 5-aprel kungi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyun kungi "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qarori.
4. lex.uz, stat.uz, yoshlar.gov.uz saytlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar.